

ILK O'RTA ASRLARDA MARKAZIY SUG'D DAVLATI TARIXI VA MADANIY TARAQQIYOTI

Norboyev Do'styor Farxod o'g'li

dostyornorboyev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada *Ilk o'rta asrlarda Sug'd tarixi va madaniy taraqqiyotida yuz bergan tarixiy jarayonlari batafsil tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Ilk o'rta asrlar Samarqand markazida Sug'd konfederatsiyasi «Sug'd ittifoqi» mazmunidagi davlat o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Sug'd, An, Kan, Si, Shi-lao va Mi atamaları, Gava o'lkasi, Waxsu – Amudaryo, Yax Sarta, Zar sochuvchi, Sug'd ittifoqi, Syuan-szan va Xoy Chao, konfederatsiya, Sug'd konfederatsiyasi, hududiy rivojlanish, ilk davtalchilik tarixi va Avesto kitobi.*

Qadim Sug'dning markaziy qismi hisoblangan Samarqand tarixi uzoq o'tmishga ega bo'lib, azaldan insoniyat tamadduni beshiklaridan biri hisoblangan. Ayniqsa vohaning ilk o'rta asrlar davri Samarqand tarixida muhim o'rin tutgan.

Ilk o'rta asrlar Samarqand markazida Sug'd konfederatsiyasi «Sug'd ittifoqi» mazmunidagi ushbu nisbiy atama ostida birinchi o'rta asrlarda Zarafshon daryosi havzasidagi Samarqand, Panj, Maymurg' hukmdorliklarini hamda Qashqadaryo daryosi havzasidagi Kesh va Naxshab hukmdorliklarini o'z ichiga olgan muayyan siyosiy uyushma tushunilib, uning tarkibidagi mazkur hukmdorliklar o'z ichki boshqaruvida mustaqil bo'lishgan. Ular har biri o'z boshqaruv markazi poytaxti, hukmdor sulolasi, hokimlik ramzlari va qo'shini kabi

hokimlik xususiyatlariga ega. O'z navbatida ularning bitta siyosiy ittifoq konfederatsiyasiga asosan ushbu hukmdorliklarning o'zaro boshqaruv hukmdorlik (yoki sulola)ga bo'ysunishlari, hukmdor sulolalar kelib chiqish jihatidan ularga borib taqalishlari yoki ayrim ijtimoiy-siyosiy va madaniy-mafkuraviy majburiyatlarni bajarishlari kabi omillar yotgan. Jumladan, Samarqandda Chjaovu (Jamuk) xonadoni hukm surib, qolgan hukmdorliklardan aksariyatini ushbu xonadonga mansub sulolar boshqargan va ular orasida Samarqanddagi sulola boshqaruvchilik qilgan. Tashqi dushmanlarga birgalikda kurashish majburiyatida bo'lgan hukmdorlar vakillari yilning muayyan vaqtlarida bitta joyga yig'ilga holda diniy amallarni, xususan, zardushtiylik udumlarini hamkorlikda bajarishgan.

“SUG‘D” atamasining kelib chiqishi va uning mohioyati.

Ma'lumki, Sug'd miloddan oldingi 1- mingyillikning boshlarida O'rta Osiyoda shakllana boshlagan ilk davlatlar («shahar davlat», «voha davlati»)dan biri sifatida qadimiy eroniy bitiklarda Sug'uda, yunon manbalarida Sogdiana shaklida tilga olinadi.

“Avesto” kitobida “Gava o'lkasida sug'diylar yashaydi» deb keltiriladi. Antik davr manbalarida ham Sogdiana o'lkasi (Sug'd) va Sogdiana ahli (sug'diy) haqida tafsilotlar keltirilib, A.Ataxodjayev o'z tadqiqotida R.Frayga suyanan holda, sug'diylarning bu hududga joylashuv mil. avv. II - mingyillikning ikkinchi yarmi va I mingyillik boshlari deb keltiradi.

Sug'd konfederatsiyasi hududi O'rta Osiyoda eng muhim hududlardan bo'lib bu yerda yaratilgan madaniyat Sharqiy Turkiston, Xitoy, Eron, Hindiston

madaniyatlariga ta'sir etgan. Ta'kidlash joizki, bugungi kun tarixshunosligida Sug'd konfederatsiyasi chegaralari, ayniqsa janubiy chegaralari to'g'risida baxslar ko'zga tashlanadi. V.A.Livshis o'z tadqiqotlarida Strabon ma'lumotlari asosida Sug'dning janubiy chegarasi Oksgacha (Waxsu - Amudaryo) va shimolda esa Yaksartning yuqori oqimigacha (qadimgi eroniy tilda Yax sarta «Tez oquvchi (?)», Sirdaryo) bo'lgan deb keltiradi.

O'rta asr arab-fors tarixchi va sayyohlari Sug'd deb Zarafshon vohasining markazidagi Samarqandni yoki butun vohani hamda janubiy Sug'd deb Qashqadaryoni (Kesh va Naxshab) keltiradilar.

Aslida Sug'd geografik jihatdan bugungi O'zbekiston hududlarining Zarafshon va Qashqadaryo hududlari bo'ylab joylashgan Samarqand, Buxoro, Kesh, Naxshab vohalaridan iborat markaziy bo'g'inini tashkil etadi. Ammo manbalarda V – VIII asrlarga oid Sug'dning geografik hududlari haqida ba'zan bir-birini istisno etuvchi fikrlar yetib kelgan. Masalan, xitoy rohibi Syuan-szan (629) «Sug'd» tushunchasini juda keng hududlarga nisbatan tadbqiq etgan. Uning ma'lumotlaridan ayon bo'lishicha, Chu daryosi vodiysidan to Qarshi vohasini Sherobod vohasidan ajratib turuvchi tog' dovonidagi Temir darvozagacha (Darband) «Sug'd» deb atalgan.

629 - 630 yillarda O'rta Osiyo orqali o'tgan Syuanszan bu hududning geografiyasi to'g'risida muhim ma'lumotlar yozib qoldirgan. Unga ko'ra, Sug'd (xitoycha Suli) Suyobdan to Keshgacha (Qashqadaryo vohasi) bo'lgan hududda joylashgan. Bu hudud aholisining tili va yozuvi ham sug'diycha bo'lgan. Bundan

ma'lum bo'ladiki, VII asrning birinchi yarmida sug'diy til va yozuv Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo vohasi, Ustrushona va Chochda keng tarqalgan. Bu haqda Chochda zarb etilgan tangalar va saqlanib qolgan toponimlar orqali ham bilish mumkin.

Xuddi shunga o'xshash ma'lumot 726 yilda O'rta Osiyoda bo'lgan boshqa bir xitoy sayyohi Xoy Chao tomonidan keltirilgan. U O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'ini til xususiyatlariga qarab olti geografik hududga bo'ladi. Ular: Buxoro (An) vohasi, Ustrushona (Sao), Kesh (Shi), Choch-Iloq (Shi-lo), Maymurg' (Mi) va Samarqand (Kan) bo'lgan. Ushbu hududlardan sug'diy yozma yodgorliklarning topilishi ham buni tasdiqlaydi.

«Sug'd» tarixiy-geografik atamasi qaysi hududlarga bog'lanishi haqida xitoy manbalari qiziqarli ma'lumotlar beradi. Xitoylar o'z davlatlarining chegaralarini xaritalarga tushirish asnosida o'zlariga qo'shni bo'lgan hududlarning nomlarini ham keltirib o'tganlar. Masalan, Xan sulolasi yilnomasida Sug'dni «Suhe» deb keltiradi va Kangyuyning bir bo'lagi sifatida ko'rsatiladi. Tan sulolasi yilnomasida esa Sug'd Shi (Kesh) bilan bir hudud deb keltiriladi.

Zarafshon daryosi (xalq tilida «Zar sochuvchi») o'rta asr mualliflari asarlarida «Sug'd daryosi», «Buxoro daryosi» deb keltiriladi. Ba'zan shunday ham bo'ladiki, ma'lum bir makondan aholining ko'chishi natijasida o'sha yerdagi joy nomi ham o'zgaradi. Uning asl joyini boshqa xalq yoki etnik o'zgalar egallaydi. Xuddi shu kabi holat Zarafshon daryosiga nisbatan bir necha bor ro'y berganligi ma'lum. Klavdiy Ptolomey uni Politimet (Πολιτίμητος) «ko'p ulug'vor» yoki

«ko‘p sharaflı» deb nomlagan bo‘lib, bu qadimgi sug‘diychada Namika yoki Namiča «mashhur», «faxrli, ulug‘vor» ma‘nolarini anglatadi. Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlarida bu so‘z **nm‘cyw** va **nm‘cw** shaklida keltiriladi. Bu gidronim xitoychadan Namiet shakli orqali kirib kelib, ilmiy adabiyotlarda Nami shaklida qo‘llanilgan va Sug‘d konfederatsiyasi joylashgan voħa sifatida keltirilgan.

«Sug‘d» atamasi uzoq vaqt davomida turli tilli manbalarda uchrab kelgan. V.Tomashek bu so‘zni umumeroniy tillardan kelib chiqib, «porlamok», «yonmoq», «yarkiramoq» (tojik tilidagi «so‘xtan» «yonmoq» so‘zining negizini tashkil etadi) deb izohlaydi». Forsiy yoki tojik tillari lug‘atida esa bu atama «suv to‘planadigan pasttekislik» ma‘nosini beradi. Ushbu o‘rinda suv to‘planadigan joy sifatida Zarafshon daryosining quyi qismi nazarda tutilgan. Agarda Suyb toponimi «yonmoq» «so‘xtan» ma‘nolarini anglatadi.

ILK O‘RTA ASR SUG‘D DAVLATCHILIGI MASALASI

Yer yuzining aksariyat hududlarida bo‘lganidek, Markaziy Osiyoda ham ilk davlatlar o‘troq aholi yashaydigan vohalarda dastlab, Murg‘ob, Amudaryo va Zarafshon kabi daryolar havzalarida vujudga kelgan. Davlatning paydo bo‘lishiga olib kelgan omillarning xususiyatlari esa davlatlarning tasnifini belgilab beradi. Ushbu omillar davlat fuqarolarining hududiy joylashuv jihatlarida, hokimiyatning siyosiy xususiyatlarida, soliq tizimida, xalqaro munosabatlardagi mustaqillikda, davlatning huquqiy me‘yorlarida, mansablar iyararxiyasida namoyon bo‘ladi. Davlatni shakllantirishga xizmat qiluvchi mazkur holatlar Markaziy Osiyo mintaqasida davlatning vujudga kelishini «sivilizatsiyaviy yondashuv» asosida

tushuntirib berish mumkinligini ko'rsatmoqda..

«Sivilizatsiyaviy yondashuv»ga ko'ra, davlatning rivojlanishi dehqonchilikning taraqqiy etishi, xunarmandchilikning mustaqil ishlab chiqarish sohasiga aylanishi natijasida mulkiy munosabatlardagi tengsizlik vujudga kelib, qabila boshliqlari, kohinlar, harbiylarning jamiyatdagi mavqeyi oshib, ilk shahar-davlatlar vujudga kelgan. Ilk o'rta asrlar davriga kelib esa o'troq turmush tarzi hukmron bo'lgan ziroatchilik vohalarida qabilalar harbiy tashkilotlari ahamiyatining oshishi natijasida hududiy-siyosiy uyushmalar ko'rinishdagi davlat birlashmalari shakllangan. Mazkur siyosiy uyushmalar boshqaruv tizimida konfederativ asos yetakchi bo'lib, ushbu davlat tuzilmasiga ilk o'rta asrlarda Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida joylashgan Sug'dni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Davlat tiplari ilk ko'rinishlaridan biri bu davlatning «konfederatsiya» shakli bo'lib, bugungi kunda «konfederatsiya» tushunchasiga tadqiqotlarda quyidagicha ta'rif berilgan. Ularga ko'ra, «konfederatsiya» (confederatio birlashish, ittifoq) davlatlar ittifoqi bo'lib, u yangi davlatning vujudga kelishiga olib kelmaydi. «Konfederatsiya» nisbatan kam tarqalgan davlat tuzulishi shakli hisoblanib, uni tashkil etuvchi davlatlar o'z mustaqilligini saqlab qoladi, o'z hokimiyati, boshqaruv organlariga ega bo'ladi, o'z faoliyatini muvofiqlashtirish uchun konfederatsiyaga a'zo davlatlar ma'lum shartlarga rioya qilishadi. Konfederatsiya a'zolari o'rtasidagi shartlar belgilangan sohalarda faoliyat ko'rsatadi (masalan, iqtisodiy, siyosiy, harbiy v.b.). Konfederatsiyaga ba'zan davlatlarning federasiyaga

birlashish sari tutgan yo'lidagi oraliq bo'g'in deb ham qaraladi.

Ta'kidlash lozimki, konfederativ boshqaruv shakli qadim tarixiy ildizlarga ega. Konfederativ boshqaruvga asoslangan davlatlar Yevropada, xususan, Shvyetsariyada 1291 yilda vujudga kelgan bo'lsada, mazkur davlat boshqaruv tipining ilk alomatlari Markaziy Osiyoda mil. avv. V-IV asrlardan boshlangan dastlabki ko'chmanchi asosdagi davlatlarda qabila ittifoqi ko'rinishida, milod boshlarida Markaziy O'zbekistonning tarixiy-madaniy vohasi Sug'dda voha hukmdorliklarining ittifoqida namoyon bo'ladi.

Bugungi O'zbekiston hududida tarixda mavjud davlatlarni o'z xususiyatlariga ko'ra bir necha tiplarga bo'lish mumkin. Ularning ba'zilar o'troq va ko'chmanchi madaniyatlar birlashuvi natijasida vujudga kelgan bo'lsa (masalan, Qang' davlati), ba'zilar bu hududda mavjud davlatlarni bevosita bosib olib, bo'ysundirish asnosida o'z davlatlari boshqaruvini joriy etishga harakat qilishgan (masalan, ahamoniylar davlati). Shuningdek, simbioz natijasida vujudga kelgan va hozirgi kunga qadar tadqiqotchilar tomonidan davlat boshqaruv tuzumi kam o'rganilgan davlat tuzilmalari ham mavjud bo'lib, mazkur davlatlar sirasiga asli Markaziy Osiyodan Sharqiy Turkistonga borib joylashgan hamda hunnlarning xujumlari natijasida yana o'z ona yurtlariga qaytgan Chjaovular hukmronligida Samarqand markazli Sug'd konfederativ davlatini ham misol qilish mumkin. Manbalarda nafaqat Samarqand balki Xorazm va Buxoro hukmdorlarining chjaovulardan ekanligi keltiriladi. Bundan tashqari, noiblik asosidagi mutlaq monarxiya tipidagi davlatlar ham Markaziy Osiyo hukm surgan. Shunday

davlatlardan biri mil. avv. III asr o'rtalaridan mil. avv. II asr o'rtalarigacha mavjud Yunon-Baqtriya davlatidir.

Dastlabki Qang' hukmdorlarining tanga zarbi xususida ma'lumotlar kam. Qang'ning ilk davrida Yunon-Baqtriya hukmdorlariga taklidan tangalar zarb qilingan va ichki bozorda ishlatilgan. Qang' davlati tarkibidagi ma'muriy birliklar uchun umumqang' tanga zarbi bo'lmagan. Har bir ma'muriy birlik o'z tanga zarbiga ega bo'lgan. Jumladan, Buxoro atrofi hukmdorlari o'z unvonlari va ismlari yozilgan Yevtidem tangalariga taqlidan tanga zarb ettirishgan bo'lsa, Markaziy Sug'd Samarqandda Girkod tangalariga taklid qilingan sug'diy hukmdorlar tangalari bosilgan. Xorazmda alohida tangada ismi keltirilmagan hukmdor tangalarining zarb qilinganligini kuzatish mumkin. Tangalar taxlili shuni ko'rsatadiki, Sug'dda tanga zarbi nafaqat Qang' davlati mavjudligi davrida, balki Xioniylar, Eftaliylar hamda Turk xoqonlari davrida ham davom etdi. Sug'd tarkibidagi ma'muriy birliklarning har birida mustaqil tanga zarbi mavjudligi masalasi uning konfederativ boshqaruv tizimi bilan bog'liq bo'lgan. Sug'dning Qang' tarkibidagi mustaqil tanga zarbi uning iqtisodiy mustaqilligiga va o'z navbatida konfederatsiya holatiga kirishida muhim omil bo'lgan.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytib o'tmoqchiman, qadimgi Sug'd davlatchiligi butun ilk o'rta asrlar davomida Samarqand hududidagi eng yirik davlatlardan biri sifatida tarixda qoldi. Ilk Sug'd davlati va nomlanishi haqida nafaqat mahallaiy manbalarda, balki Xitoy, Rim va Eroniy manbalarda ham juda ko'plab ma'lumotlar

uchraydi, Bular orasida Xitoy manbalar alohida ahamiyatga ega bo'lib, bunda qadimgi O'zbekiston hududidagi shahar-davlatlar nomlarini keltirilganligi. O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'ini til xususiyatlariga qarab olti geografik hududga bo'ladi. Ular: Buxoro (An) vohasi, Ustrushona (Sao), Kesh (Shi), Choch-Iloq (Shi-lo), Maymurg' (Mi) va Samarqand (Kan) bo'lgan xitoy manbalari orqali bizgacha saqlanib qolganligi biz tarixchilar uchun Sug'd tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Отайўжаев.А Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. ... – Б.64
2. Лившиц В.А. Древнее название Сыр-Дары // ВДИ.-М: - №.3-10.
3. Бартольд В.В. Согд/Соч. – М: 1965.-Т:III.-С. 487-488.
4. Гафуров Б.Г. Таджики. ... 1. – С.314.
5. Лившиц В.А. Согдийские документы из замка Чильхуржа. ... - С. 80.
6. Tomashek W. Central Asiatische studies I.Sogdiana. ... - P. 74- 75.
7. Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык. ... - С. 348.
8. Шониёзов К. Қанғ давлати ва қанғлилар. ... – Б. 54.
9. Ғойибов Б. Суғд конфедерациясининг тарихий-маъмурий бўлиниши хусусида айрим мулохазалар // Илмий хабарнома. Научный вестник. – Андижон, 2014.- №1. 59-60.